



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

5(22)
2025





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№5(22) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

TARIX..... 8

Tuyev Fazliddin Erkinovich. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida investitsion jozibadorlik: 2017-2023 – yillar misolida.....	8
Axmadov Amonkeldi. Tarixni o'rganishda sun'iy intellektning roli.....	14
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, Xurramov Abror Rustam o'g'li. Poykent va Varaxshaning arxeologik o'rganilishi (XX asrning 30-40 – yillari misolida).....	17
Orziyev Mahmud Zayniyevich, Ergashev Avaz Amon o'g'li. Buxoro amirligi hududida temir yo'llarning qurilishi va ahamiyat xususida.....	21
Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Ta'lim sohasidagi muzeylar nufuzining yanada ortishi (Buxoro misolida).....	26
Bobojonova Feruza Xayatovna. Buxoro oblastida sovet maktabi masalalarining matbuotda yoritilishi.....	29
Yuldosheva Bibirajab. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davridagi atmosfera havosini muhofaza qilish siyosatining tarixiy tahlili	35
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. Yurtimizdagi dastlabki qishloq manzilgohlarining shakllanish jarayonlari.....	42
Sultonova Nigina. Buxoroda ishlab chiqarilgan matolar	45
Shamsiyeva Zilola Askarovna. Jadidlarning marosimlarga oid fikr-mulohazalari xususida.....	48
Axmadov Amonkeldi, Ziyodulloyeva Parvina. ikki qutbli dunyoda German davlatlarining taqdiri (1945–1990 yy.)	53
Sirojov Ochil Sirojovich. Fashizmga qarshi urush yillarida O'zbekiston engil va mahalliy sanoatning harbiy izga ko'chirilishi.....	57
Sharipova Parizod Quvvatjon qizi. Mustaqillik yillarda o'zbek xonliklarining tarixini o'rganilishi	62

ANIQ FANLAR..... 67

Xojiyev Baxodir Istamovich, Berdiqulova Marjona Murod qizi. Fizikaning “fotometriya qonunlari” bo'limidan masalalar yechish metodikasini rivojlantirish.....	67
Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, Baxronova Sayyora Botir qizi. Ta'lim jarayonida raqamli platformalarning integratsiyasi: amaliy yondashuvlar.....	72
Mirzayev Tolibjon To'raqul o'g'li. Generativ sun'iy intellekt yordamida xavfsiz kod yozish kompetensiyasini shakllantirish.....	77
Raupova Iroda Barakayevna. Methodological foundations of using the credit-module system in teaching physics	81
Ochilova Laylo Temirovna. Determinantlar va ularning xossalari o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	84
Jamolova Shahlo Qobilovna, Ravshanova Shaxlo Erkinovna. Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili	90

FILOLOGIYA 94

Xalilova Ruxsora Raupovna. O'qituvchining individual nutq uslubini rivojlantirishni tashkil etish nazariyasi.....	94
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy tillardagi kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalari (“Règles de la politesse française” mavzusi misolida).....	97
O'rinova Maftuna No'mon qizi. Oxunjon Safarov – bolalar folklorining areal tadqiqotchisi	106

PEDAGOGIKA.....109

Mustafayev Baxtiyor. Maktab musiqiy-pedagogik jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati	109
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna. Oliy ta'lim muassasalari kafedra mudirlari faoliyatida subordinatsiya omilining ijtimoiy-psixologik ahamiyati.....	112
Axrarov Ixtiyor. Jadidlar harakatining ilm-fan, ta'lim va matbuot yo'nalishlaridagi islohotlari	117
Ishankulova Komila Kurbanovna. Talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish	121
Yadgorov Nodir Djalolovich, Davlatova Aziza. Badiiy tahlilni o'qitish jarayonida o'quvchilarning emotsional qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.....	126

BUXORO OBLASTIDA SOVET MAKTABI MASALALARINING MATBUOTDA YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro oblastida (hozirda Buxoro viloyati) xalq maorifi tarixi masalalarining matbuotda yoritilishi to'g'risida ma'lumot berilgan. Buxorodagi sovet maktablari, dars o'tish jarayonlari, kechki maktablar, to'garaklar to'g'risidagi ma'lumotlar matbuotdagi maqolalar orqali yoritilgan. "Sovet maktabi" deb nomlangan jurnalning ma'lum sonlarida Buxoro oblasti maktab ta'limiga doir ma'lumotlar berib borilgan. Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan ta'lim tizimidagi islohotlar, maktablarning tashkil etilishi va uning kommunistik mafkura siyosati ta'siriga olinishining oqibatlari va natijalari, ta'limdagi kamchiliklar manbalar asosida ilmiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: maktab, "Sovet maktabi" jurnali, kommunistik mafkura, sovet maktablari, o'qituvchilar, o'quvchi, xalq maorifi, xalq maorifi bo'limining mudiri, mehnat-politexnika maktablari.

ОСВЕЩЕНИЕ В ПРЕССЕ ПРОБЛЕМ СОВЕТСКОЙ ШКОЛЫ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В этой статье приведены сведения об освещении вопросов истории народного образования в печати Бухарская области. Информатсия о советских школах Бухары, учебном процессе, вечерних школах и клубах освещалась в статьях в прессе. В отдельных номерах журнала "Советская школа" публиковалась информатсия о школьном образовании в Бухарской области. Также на основе источников научно проанализированы реформы в системе образования, проведенные в годы советской власти, последствия и результаты организационных школ и их подверженность коммунистической идеологической политике, недостатки в образовании.

Ключевые слова. Школа, журнал "Советская школа", коммунистическая идеология, советские школы, учителя, ученики, народное образование, заведующий отделом народного образования, трудовые политехникумы.

PRESS COVERAGE OF SOVIET SCHOOL PROBLEMS IN BUKHARA REGION

Annotatsion. In this article, Bukhara region information is given on the coverage of issues of the history of public education in the press. Information about Soviet schools in Bukhara, learning processes, evening schools, and clubs was covered by articles in the press. In certain issues of the magazine called "Soviet School", information was provided on school education in the Bukhara region. The reforms in the education system implemented during the years of Soviet rule, the consequences and results of the organization of schools and their influence on communist ideological policy, and shortcomings in education were scientifically analyzed based on sources.

Keywords. school, "Soviet School" magazine, communist ideology, Soviet schools, teachers, students, public education, head of public education department, labor polytechnic schools.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning sovet davri tarixini xolis va haqqoniy yoritish imkoniyati yaratildi va millatni uyg'otish, ma'naviyatini oshirishda buyuk tarixiy adolat qaror topdi.

Buxoro oblastidagi (viloyat) ta'lim masalalarining matbuotda yoritilishida "Sovet maktabi" jurnalining roli va ahamiyati katta bo'lgan. "Sovet maktabi"-oylik ilmiy-pedagogik jurnal hisoblangan. Sovet maktab uslubi jurnal sirasiga kirgan. O'zbekiston SSR Ta'lim vazirligi organiga qarashli bo'lib, Toshkentda o'zbek tilida 1918-yilda nashr etilgan. Jurnal o'z nomini bir necha bor o'zgartirgan: 1918-yilda u haftada bir marta o'zbek va rus tillarida nashr etilgan va "Maorif" ("Prosvetnyeniye") nomi ostida chiqqan.

1923-1924 - yillarda "Bilim o'chog'i" ("Znaniye") nomi ostida, 1925 - yildan oyda bir marta "Maorif va maktab" ("Prosvetnyeniye i uchitel") nomi bilan nashr etilgan. 1934-1937-yillarda oyda bir marta nashr etilgan va "Politexnika maktabi va pedagogi" ("Politexnicheskaya shkola i pedagogika"),

1937-1941-yillarda esa "Pedagogiyetkasida kengash", "Sovet pedagogikasi" ("Sovetskaya pedagogika") deb nomlangan. 1941-yildan 1951-yilgacha jurnal nashr etilmagan. Nashr 1951 - yilda yana qayta tiklangan.

"Sovet maktabi" jurnalining maqsadi - o'qituvchilar va xalq ta'limining boshqa xodimlariga o'qitish samaradorligini oshirishda yordam berish bo'lgan. Ta'lim jarayoni, umumta'lim, mehnat va politexnika fanlarini o'qitishni takomillashtirish masalalari yoritilib borilgan. Asosiy maqsadi esa ta'limdagi o'quvchi va talabalarni kommunistik ruhda tarbiyalash bo'lgan.

Ushbu jurnal ishida respublika o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, olimlari, xalq ta'limi, maorif xodimlari, partiya va sovet tashkilotlari rahbarlari ishtirok etganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro oblastida maktab masalalariga doir maqolalarni "Sovet maktabi" jurnali sahifalarida uchratishimiz mumkin. Muzaffarovning "Maktab to'g'risida qonunni amalga oshirishdagi birinchi qadamlar", E.Yusupovning "Darsning samaraligi uchun", J.Polvonovning "Ijtimoiy burch hissini shakllantirish", S.Tursunov, U.Orifjonovning "Fakultativ mashg'ulotlarni planlashtirish", R.Q.Otajonovning "Fakultativ mashg'ulotlarda geometrik almashtirishlar", N.Ochilovning "Jamoatchilikning yordami", S.Matyoqubovning "Darsda o'quvchilar bilan individual ishlash", R.I.Aronboyevning "O'quvchilar shahar tarixini o'rganmoqdalar", M.Mirqosimovning "O'zbekistonSSR"ni o'rganish", L.Karimovanning "Kuni uzaytirilgan maktablarda uy vazifasi", S.S.Korn, S.T.Og'ajonova, K.Ahmadjonovanning "Ertalabki gimnastika va uning ahamiyati", I.Huseynovning "Tajriba ishlarini uyushtirish", L.M.Shvedkoning "O'quvchilarning aktivlashtirish", A.M.Minayevning "O'qish darslarida texnika vositalaridan foydalanish", T.Shirinovning "Kollektivning tashabbusi", U.Fayzullayeva, A.Zokirovning "Shudgorlashning ahamiyati", A.Ahmedov "O'quvchilarda kollektivizmni shakllantirish" deb nomlangan maqolalarida Buxoro oblastida sovet maktablaridagi ahvoli tasvirlangan.

Asosiy qism. Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarovning "Maktab to'g'risida qonunni amalga oshirishdagi birinchi qadamlar" deb nomlangan maqolasida "SSSR Oliy Soveti va O'zbekiston SSR Oliy Sovetining "Maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risida va xalq maorifi sistemasini yanada rivojlantirish haqida" qabul qilgan qonunlari kommunistik g'oya bilan sug'orilgan bo'lib, o'sha davr nuqtai-nazaridan mamlakatda kommunistik qurilishning hozirgi vazifalariga tamomila munosibdir" degan ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

1959-1960-o'quv yili maktabni qayta qurish to'g'risidagi qonunni amalga oshirishning birinchi yili bo'lganligi va ana shu davr ichida Buxoro oblastida partiya, sovet tashkilotlari hamda jamoatchilik yordami bilan maktab to'g'risidagi Qonunni amalga oshirish bo'yicha dastlabki ishlar qo'lga kiritilganligini izohlab:

- maktablarning o'quv-materiallar bazasi ancha kengaytirilganligi;
- darslarni bir smenada olib borish uchun ko'pgina yangi maktab binolari qurilganligi va qo'shimcha sinf xonalari tashkil etilganligi;

- bir smenali mashg'ulotlarga ko'chirish uchun kolxozlarning kuchi va mablag'lari hisobidan 32 tipovoy maktab binolari qurilganligi;

- 25 klub, 106 ma'muriy xo'jalik binolari maktabga topshirilganligi; -maktablarga qo'shimcha ravishda 41600 o'quvchiga mo'ljallangan 1366 sinf xonasi qurib berilganligi;

- maktablar yuqori ixtisosli o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlanganligi;
- o'quv-tarbiya muassasalarining yangi tipi-internat-maktablar tarmog'i kengaytirilganligini tekshirish natijasida hisobotlarda o'z aksini topgan.

Endilikda deb yoziladi maqolada Buxoro oblastidagi maktablarning hammasi 1960-yilning 1 - sentyabridan boshlab bir smenali mashg'ulotlarga to'la o'tganligi aniqlangan.

Buxoro oblast maktablarini bir smenaga ko'chirilishi, maktablarning o'quv-material bazasini mustahkamlash uchun boshlangan harakat natijalar berganligi, hamda o'qituvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berishning bazasi ancha kengayganligini maqolada aytib o'tilgan.

Buxoro oblastidagi o'rta va yetti yillik maktablar huzurida yog'och va metallni qayta ishlash, tikuvchilik bo'yicha 287 ta o'quv ustaxonalari, avtomobil va traktorlarni o'rganish yuzasidan 50 ta kabinet, 250 ta fizika kabineti borligi aniqlangan. Ko'pchilik maktablarining o'quv-tajriba uchastkalariga ega degan ma'lumotlarni Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarov o'z hisobotida keltirgan. Fikrini davom ettirib, Buxoro oblastidagi 25 ta maktab huzurida terish mashinalari va traktorlarni o'rganish to'garaklari tashkil etilganligi, ayrim maktablar paxta terish mashinalarini boshqaruvchilarni tayyorlash sohasida anchagina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligi aniqlangan. Masalan, Sverdlov (hozirgi Jondor) rayonidagi Pravda, Qorako'l rayonidagi Krupskaya nomli maktablarda dongdor mexanizator Tursunoy Oxunovanning tashabbusidan ilhomlanib, xotin-qizlardan paxta terish mashinalarini boshqaruvchi 40 kishi tayyorlanganligi hisobotlarida o'z aksini topgan.

Xalq maorifining yangi sistemasida ishlab chiqarish ta'limi bilan umumiy ma'lumot beradigan mehnat-politexnika maktablari muhim o'rin tutgan. 1959-60 o'quv yilida Buxoro oblastida ishlab chiqarish

ta'limi beradigan 22 ta IX sinflar ochildi. 1965 - yilning oxiriga borib bunday maktablarning soni 100 taga yetkazildi, o'quvchilar kontingenti esa qariyb 11 ming kishini tashkil etganligi aniqlangan.

Buxoro shahridagi Navoiy nomli, Navoiy rayonidagi Lenin nomli, G'ijduvon rayonidagi Lenin nomli, Qorako'l rayonidagi Telman nomli va boshqa rayonlarning ko'pgina maktablarida ta'lim ustaxonalarining ishi yaxshi yo'lga qo'yilganligi, bu maktablarda umumiy ta'lim fanlarining o'qitish ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borilganligi hisobotlarda o'z aksini topgan.

Buxoro oblastidagi maktablarda o'quvchilar traktor, paxta terish mashinalari, avtomobillarni boshqarishni o'rgatganlar. O'tgan o'quv yilida (1960-yil) deb yoziladi, hisobotda 4 mingdan ortiqroq o'quvchi paxtachilik, makkajo'xorichilik, parrandachilik bo'yicha tashkil qilingan 268 ta ishlab chiqarish brigadalarida, shuningdek 100 dan ortiq pillachilik zvenolarida ishlaganligi aniqlangan.

Ayrim maktablar tekshirilganda deb yozadi, Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarov (1960-yil) hozirgi kunda maktablar 10 ming suv parrandasiga, 2 mingdan ortiq quyonga ega ekanligi, ba'zi bir maktablarning o'quvchilari cho'chqa boqish va uni ko'paytirish bilan shug'ullanayotganligi tekshirishlar natijasida aniqlangan. Maktablarda o'quvchilardan tuzilgan brigada va zvenolarning hammasi o'z ishlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritib, zimmalariga olgan majburiyatni muvaffaqiyatli uddalaganlari, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab olib borish mumkin ekanligini amalda ko'rsatib berganliklari hisobotlarda ma'lumot sifatida berilgan.

Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarov maktablarni tekshirganida o'tgan yili (1960-yil) o'quvchilar paxtachilik brigadalarining ko'pchiligida yuqori hosil yetishtirganliklari aytib o'tilgan. Masalan, Sverdlov rayonidagi 9 ta ishlab chiqarish brigadasi 100 gektar maydonning har gektaridan 31 syentnerdan paxta yetishtirganligi, G'ijduvon rayonidagi Sadridin Ayniy nomli o'rta maktab o'quvchilar brigadasining a'zolari 20 gektar maydonning har gektaridan 44 syentnerdan hosil ko'targanliklari, shu bilan birga, barcha o'quvchilar brigadalarining a'zolari yaxshi va a'lo baholarda o'qiganliklari, deb hisobotda yozilgan. Aslida esa moddiy ishlab chiqarish birinchi darajali vazifa degan bahonada va ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish degan vaj asosida maktablarda ta'lim-tarbiya bo'shashib ketdi, u ta'lim ikkinchi rejaga surib qo'yildi. Maktab o'quvchilari bir necha oylab paxtani yagonalash, qator oralariga ishlov berish, terim mavsumiga va chorva uchun yem-hashak tayyorlash kabi ishlarga surunkali safarbar qilinganlar. Yosh pillachilar 135 quti urug' boqib har qutidan o'rta hisob bilan 67 kilogrammdan pilla olishga muvaffaq bo'lganliklari ham aniqlangan.

Buxoro oblastining Qorako'l, Shofirkon, Vobkent rayonlari (tumanlari) maktablaridagi pillachilik zvenolari, ayniqssa, yaxshi ishlaganligi, Qorako'l rayonidagi Navoiy nomli maktab o'quvchilar pillachilik zvenosi har quti urug'dan 128 kilogrammdan pilla topshirganligi, Kogon rayonidagi Kirov nomli maktab o'quvchilari 4 quti urug'dan 488 kilogramm yuqori sifatli pilla olganliklari matbuot sahifalarida yoritilgan.

Hisobotlar natijasida "Sovet maktab" jurnali sahifalarida Sverdlov rayonidagi o'rta maktabni tamomlab chiqqan 225 o'quvchi kolxozlarda traktorchilari, paxta terish mashinalarining mexanik-haydovchilari, cho'chqaboqar, sut sog'uvchi bo'lib ishlash istagini bildirganligi yozilgan. Demak, sovet maktablarida dars berish jarayonida ta'lim berishda ayrim kasb mutaxassislarni ham tayyorlab borganlar.

Maktablarning bir smenali mashg'ulotlarga o'tishi bilan ko'pgina fanlarni o'qitish saviyasi ko'tarilganligi, sinfdan tashqari ishlar, pioner va komsomol ishi jonlanganligi aniqlangan. O'quvchilarning estetik va jismoniy tarbiyasi hamda fanlarni o'zlashtirilishi yaxshilanib, bir sinfdan ikki yil qoluvchilar soni keskin ravishda kamayganligi hisobotlarda berilgan.

Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarov maktablarni tekshirish jarayonida oldingi yillarga (1960-yil) nisbatan o'qituvchilar o'zlarining g'oyaviy-nazariy saviyalarini, ish malakalarini oshirishga, ijtimoiy-siyosiy ishlarda yanada aktivroq (faol) qatnashishga ko'proq e'tibor bera boshlaganliklarini o'z hisobotida ta'kidlab o'tgan.

"Sovet maktabi" jurnalining 1960-yil 10-oktyabr sonida maktab masalalariga doir ma'lumotlarda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: "Biz bu o'quv yilidan boshlab yetti yillikdan sakkiz yillik ta'limga o'ta boshlaymiz. Mahalliy sharoit, mavjud material baza va pedagog kadrlar tayyorlashni e'tiborga olib, 182 ta maktabdan 50 tasi ishlab chiqarish ta'limi beradigan mehnat-politexnika maktablariga aylantirildi. Yangi o'quv muassasasi bo'lgan internat maktablar tarmog'i kengaytiriladi. Ularda o'quvchilar kontingenti 3 890 kishiga ko'patirildi".

Maktablarning I-IV sinflarida yangi o'quv plani (reja) va programmasi (dasturi) asosida mashg'ulotlar o'tkazilgan. Bular fan asoslarini unumli mehnat bilan chuqur bog'lab olib borishni amalga oshirilishi ko'zda tutilganligi, yuqori sinflarda "Siyosiy bilim asoslari" degan yangi fan o'qitilishiga kiritilganligi, bu o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi degan fikrlari, ayniqssa, o'quvchilarni kommunistik ruhda tarbiyalash masalasi ekanligi matbuot sahifalaridagi maqolalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Buxoro oblastining shahar maktablarida va qishloq joylarida o'rta va yetti yillik maktablarda to'garaklar ishi ancha yaxshilanganligi, ayniqssa, o'tgan o'quv yilida (1960-yil) Buxoro oblasti

maktablarida 105 dan ziyodroq texnika to'garaklari ishlab turganligi, to'garak qatnashchilarining kuchi bilan ko'plab chiroyli eksponatlar tayyorlanganligi tekshirishlar asosida aniqlangan.

Hisobot natijalariga ko'ra, Buxoro oblast xalq maorifi bo'limining mudiri A.Muzaffarov quyidagi fikrlarni keltiradi: "O'quv yilining yakunlari o'quvchilarning davomati oshganligidan, ularning o'quv-prosessiga (jarayon) aktiv (faol) qo'shilganligidan, sinfdan tashqari tadbirlar va ijtimoiy-foydali mehnatga katta havas bilan qatnasha boshlaganliklaridan dalolat beradi. Ularning umum ta'lim doiralari kengayganligi, maktablarning ichki kontrol (nazorat) ishlari ham ancha yaxshilanganligi, maktab direktorlari va ilmiy bo'lim mudirlari o'qituvchilarning darslari bilan ko'proq shug'ullanadigan, o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatlashadigan bo'lganligini" to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z hisobotida keltirgan. Fikrini davom ettirib, Buxoro oblastida o'qituvchilari o'z ishlarini yangi talablar asosida qayta ko'ra boshladilar. Ular darslarning effektililigini (samaradorligi) oshirmoqdalar, o'qitishda abstraktililikni tugatmoqdalar, o'qitishning metodlarini yanada yaxshilash ustida qunt bilan ishlamoqdalar. Tabiiy-gumanitar fanlarni o'qitish darajasi oshdi. Kimyo, biologiya, fizika fanlarining o'qituvchilari o'quvchilarni fan qonuniyatlarini amaliy ishda, sanoatda, qishloq xo'jaligida, turmushda qo'llay olishga o'rgatmoqdalar. O'quvchilar ishlab chiqarishda amaliy ish bilan ko'proq shug'ullanadigan bo'ldilar degan ma'lumotlarni bayon etgan.

Maqola sovet mafkurasi bilan sug'orilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada o'quvchilarni "xalqlar do'stligi", "proletar internasionalizm" va "sosialistik vatanparvarlik" ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berilmoqda deyilishining o'zi sovet maktablarida o'quvchilarni kommunistik ruhda tarbiyalanganligi isbotlaydi.

Sovet tuzumi davrida maktablarda Kommunistik partiyaning roli o'quvchilarga har tomonlama singdirilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Quyidagi fikrlar buning dalilidir: "Tarix, adabiyot darslarida o'qituvchilar Vatanimizning vujudga kelishi va uning gullab-yashnayotganligi haqida, xalqlar do'stligining ilhomboxsh kuchi to'g'risida, kommunizm qurish uchun kurashda Kommunistik partiyaning dono siyosati haqida tushuntirib bermoqdalar". Bundan tashqari maktablarda o'quvchilarni "internasiolizm" ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Umumta'lim maktablarida, internat-maktablarda turli millat farzandlarining birgalikda ta'lim olishlari, dam olishlari va tarbiyalanishlari o'quvchilarni "internasiolizm" ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Maktablarda asosiy e'tibor rus tilini o'rgatishga qaratilgan. Buxoro oblast maktablarida bolalar o'zbek, rus, tojik, qozoq, turkman tillarida o'qitilmoqda, degan ma'lumotlar keltirilgan. "Vatanimizning barcha xalqlari kabi oblastimiz maktablarining o'quvchilari ham "ulug' rus tilini" zo'r havas va katta ishtiyoq bilan o'rganmoqdalar", - deb yozilishining o'zi rus tilining o'zbek o'quvchilarning ongiga qanday darajada singdirilishini matbuotdagi maqolalar orqali bilishimiz mumkin.

Buxoroda maktab masalalarida kamchiliklar birga yutuqlar ham qo'lga kiritilganligi matbuot sahifalarida o'z aksini topgan. "Buxoro oblasti xalq maorif organlari" ishchi va qishloq yoshlari o'qishini tashkil etishda ayrim muvaffaqiyatlarga erishdilar. Pedagog kadrlarning sifat sostavi (tarkibi) yaxshilandi, 362 o'qituvchidan 207 tasi oliy ma'lumotli o'qituvchilar ekanligi matbuot sahifalarida o'z aksini topgan. Shunindek, maktablarning o'quv-material bazasi ham ancha mustahkamlandi. 14 ta ishchi-yoshlar maktablaridan 3 tasi o'z binosiga ega, yigit va qizlarning umumiy ma'lumot darajasi ancha yaxshilandi, degan ma'lumotlar hisobotlarda o'z aksini topgan.

Buxoro oblastida kechki maktablar masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi "Sovet maktabi" jurnalining sahifalarida yoritib borilgan. "Yoshlarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim beradigan kechki maktablar to'g'risida alohida g'amxo'rlik qilish kerak. Ularni tegishli binolar va tajribali o'qituvchilar bilan ta'minlash har taraflama qo'llab-quvvatlash lozim. Shuni e'tiborga olish kerakki, kechki maktablar ishchi-yoshlarga umumiy o'rta ta'lim beribgina qolmay, balki o'z professional bilimlarini oshirishlari va takomillashtirishlari, umumiy, madaniy, siyosiy tayyorgarliklarini oshirishlariga ham yordam beradi", - degan ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Sovet maktabi jurnalining sahifalarida Buxoro oblastida internat masalasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. "Bundan tashqari kommunistik g'oyani maktab internatlarga o'quvchilar ongiga singdirishga har tomonlama harakat qilingan. "O'sib kelayotgan yosh avlodni "kommunistik ruhda tarbiyalashda" internat-maktablar katta rol o'ynaydi". Sovet maktablari bilan birga internatlarda ham "Kommunistik ruhda" o'quvchilarni tarbiyalanganligini matbuot sahifalarida ko'rishimiz mumkin. "Qisqa vaqt ichida yangi tipdagi ana shu ta'lim-tarbiya muassasalari keng xalq ommasining, ota-onalarning umumiy hurmatiga sazovor bo'ldi. 1960-1961-o'quv yili boshida 1700 tarbiyalanuvchidan iborat bo'lgan 8 internat-maktab ishlay boshlaganligi" aniqlangan.

Xalq maorifi Buxoro oblastida yaylovlardagi chorvadorlar bolalarga sharoit yaratish masalasini ham ko'rib chiqilgan. "Xalq maorifi organlari partiya, sovet va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yaylovlardagi chorvadorlar bolalarining bilim olishlari uchun sharoit yaratib berish to'g'risida doimiy

g'amxo'rlik qilmoqdalar. Ular uchun 120 bino qurib berildi", degan ma'lumotni matbuot sahifalarida berib borganlar.

Buxoro oblastidagi uzaytirilgan kun maktablari masalasiga doir quyidagi ishlar amalga oshirilganligi "Sovet maktabi" jurnali sahifalarida yoritib borilgan. "KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining qaroriga muvofiq uzaytirilgan kun maktablari ham bolalarining ijtimoiy tarbiyasini kuchaytirishda katta rol o'ynashi lozim. Oblastda yangi o'quv yilidan boshlab 7 ta uzaytirilgan kun maktablari ishlay boshladi",- degan ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Maktablarda asosiy e'tibor "Kommunistik qurilish" masalalariga qaratilishi o'z davri uchun kun tartibi hisoblangan. "Kommunistik qurilish sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar xalq maorifining barcha xodimlarini, o'qituvchilarini yangi maktab oldida turgan vazifalarni bajarish uchun ijodiy mehnatga ilhomlantirmoqda, degan ma'lumotdan shuni bilishimiz mumkinki, o'z davri uchun Kommunistik qurilish masalasi sovet o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifa bo'lgan.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining to'rtinchi sessiyasida "Maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risida va O'zbekiston SSR da xalq maorifi sitemasini yanada rivojlantirish haqida"gi qonunning bajarilishini ta'minlash uchun respublika maktablarida ushbu qonunning qanday amalga oshirilishini nazorat qilish masalasi o'z davri uchun dolzarb bo'ldi.

O'zbekiston SSR da Maorif ministri deputat E.Q.Qodirov dokladini o'rganish natijasida Buxoro oblastida maktab masalalariga doir quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik: "O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika hukumati bilan barcha maktablarni bir smenali mashg'ulotga ko'chirish sohasida ko'p ish qilinmoqda. O'tgan o'quv yilining oxirigacha 6,249 maktabdan 4.102 tasi bir smenali mashg'ulotlarga o'tkazildi. Buxoro oblasti jamoatchiligi bu muhim ishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu oblastdagi 546 maktabning 513 tasi yoki qariyb 94 prorenti o'tgan o'quv yilida bir smenada mashg'ulot olib bordi. Oblast partiya va sovet tashkilotlari, xalq maorifi organlari, kolxoz va sovxozlar qishloq maktablarining hammasini bir smenali mashg'ulotga ko'chirdilar",- degan ma'lumotlarni matbuot sahifalarida uchratishimiz mumkin.

O'tmishda bironta oliy o'quv yurti bo'lmagan O'zbekistonda hozirgi kunda 39 ta oliy o'quv yurti bo'lib, 1968-1969-o'quv yilida 224 ming student(talaba) ta'lim olmoqda. Bu esa 1967-1968 yildagiga nisbatan 20 ming kishi ko'p demakdir. O'zbekistonda o'tmishda bironta oliy o'quv yurti bo'lmagan, degan noto'g'ri ma'lumotlar sovet mafkurasi sifatida talqin qilinib, noto'g'ri ma'lumotlar o'quvchi yoshlar ongida singdirishga harakat qilingan. Vaholanki, hozirgi nuqtai-nazardan qaralganda, O'zbekistonda o'tmishda o'zining dunyoga mashhur bo'lgan madrasalari mavjud bo'lgan va o'z davri uchun mutaxassis kadrlarni yetkazib bergan.

"Sovet maktabi" jurnali sahifalarida 1968-yilda oliy va o'rta maxsus yurtlarida 54 mingga yaqin mutaxassis bitirib chiqqanligi va bulardan 23 ming kishi oliy ma'lumotli va 31 ming kishi maxsus o'rta ma'lumotli ekanligi, Oliy va maxsus o'rta bilim yurtlariga o'tgan yili 95 mingdan ortiq kishi o'qishga kirgan bo'lsa, Oliy o'quv yurtlari va texnikumlarining kechki bo'limlarida 179,5 mingdan ko'proq student ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olganligini ko'rishimiz mumkin.

Yosh avlodni tarbiyalashda maktabning rolini KPSS Markaziy Komiteti, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi hamda SSSR Ministrlar Sovetining o'qituvchilarining Butunittifoq II s'yezdigaga yozgan tabriknomasida: "maktab hayotga qadam qo'yuvchi har bir kishiga ijtimoiy va ilmiy texnika taraqqiyotining hozirgi talablariga javob beruvchi mukammal umumiy ma'lumot berishi, yosh avlodga kommunistik dunyoqarashini shakllantirishi, o'quvchilarni kollektivizm ruhida, o'z vataniga va socialistik internasionalizmga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashi, yoshlarni jamiyat baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga tayyorlashi, ularda burjua ideologiyasining har bir ko'rinishlariga nisbatan keskin qarshi tura bilish mahoratini qaror toptirishi lozim" deb ochiq-oydin belgilab berdi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlar kommunistik g'oyaning qay darajada yoshlar ongiga singdirilishini ko'rishimiz mumkin. Sovet maktabini kommunistik partiya yaratgan va ravnaq bergan, degan ma'lumotlar o'quvchi yoshlarning ongiga kommunistik g'oya nechog'lik singdirilishi kerakligini bilishimiz mumkin.

Buxoro oblastida 1967-1968-o'quv yilidan boshlab ayrim fanlar bo'yicha yangi plan (reja) va programmalarga o'tila boshlandi. Bundan tashqari, maqolada sovet davridagi maktab o'quvchilarning burchi haqida fikr bildirilib, "Maktab o'quvchisining burchi-kommunistik munosabatda bo'lishi bu socialistik ijtimoiy burchi mazmuniga kiradi", degan fikr sovet maktabi o'quvchi ongiga kommunistik g'oyaning majburan singdirilishi masalalari matbuot sahifalarida doimiy ravishda berilib borilgan.

Sovet O'zbekistonida 1964-65-66 - yillarda paxta planini ortig'i bajarganligi, maktab o'quvchilarning paxta kompaniyalarga jalb etilishi bunga yaqqol dalili bo'la oladi. Maktablarda fakultativ darslar ham bo'lgan. 1965-yildan boshlab ba'zi ittifoqchi respublikalarda tajriba tariqasida predmetlar bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar joriy qilindi.

Respublikamiz maktablari uchun 1967-yilda fakultativ mashg'ulotlar programmasi ishlab chiqildi va matbuotda e'lon qilindi. Bu programmada 8-10-sinflarning har birida 70 soatdan (haftasiga 2 soat)

fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishning hajmi va mazmuni tavsiya qilingan. Masalan, fizika predmeti bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar respublikamiz maktablarida 1967-1968 o'quv yilidan boshlab yuborildi. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlarda geometrik almashtirishlar kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

1953-1957-yillar mobaynida Buxoro shahridagi o'quv yurti Surxandaryo va Qashqadaryo oblastlariga malakali o'qituvchi kadrlar yetkazib berishda yordami katta bo'ldi.

Buxoro oblasti maktablarida maktablarda o'quvchilar bilan individual ishlash masalasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Darsda o'quvchilar bilan individual ishlash, o'quv-tarbiya ishlarining yuqori saviyada bo'lishida o'quvchilar bilan individual ravishda ishlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Maktablarda sinflar, yoshlari bo'yicha sxema, jadvallar tuzilgan, boladagi (o'quvchi) kamchilikni sezish bilan uni tuzatishga kirishish samarali natija berganligi matbuot sahifalarida o'z aksini topgan.

Sovet maktablarida ertalabki gimnastikaga alohida e'tibor qaratilgan. Buxoro oblasti maktablarda ertalabki gimnastika ham bajarilganligini matbuot sahifalarida ko'rishimiz mumkin.

Buxoro oblast yosh tabiatshunoslar stansiyasining metodisti I.Huseynov "Tajriba ishlarini uyushtirish" deb nomlangan maqolasida sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy ish formalaridan biri-har xil turdagi to'garaklarni tashkil qilishdir. Biz Buxoro oblast Yosh tabiatshunoslar stansiyasida 4-8-sinf o'quvchilaridan iborat gulkorlar to'garagini tashkil qildik, degan ma'lumotlar uchratishimiz mumkin.

T.Shirinovning: "Kollektivning tashabbusi" deb nomlangan maqolasi sovet maktabi o'qituvchisi va pedagogik kollektivlarning faoliyatiga bag'ishlangan. "Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdek qiyin, lekin sharaflı vazifa sovet maktabi, o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Bolalarga chuqur bilim berish, uni kommunizm kishisi qilib tarbiyalash ishning muvaffaqiyati, asosan, pedagogik kollektivlarning faoliyatiga, tashabbusiga bog'liqdir",- degan ma'lumotlar matbuot sahifalarida doimiy ravishda yoritilib, o'z davri ya'ni sovet hokimiyati uchun eng dolzarb masalasa hisoblanib, butun diqqat e'tibor shu masalaga (ya'ni sovet maktabi o'quvchisi ongiga kommunistik g'oyani singdirish) qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, maktablarda sovet hokimiyatining olib borgan siyosati biryoqlamalik bo'lgan. Bu sovet hukumatining maktablarga nisbatan chuqur o'ylagan ishi edi. O'zbek millati o'quvchilariga yod bo'lgan kommunistik mafkura bilan ularning ongini zabt etishga harakat qilganlar. Shu asnoda xalqni qaramlikda, kuchli tazyiq ostida tutib turish sovet hukumatining pirovard maqsadi bo'lgan. Maktablarda olib borilayotgan ishlar davlatchilik siyosati manfaatlariga bo'ysundirilgan holda olib borilgan. Shuningdek, sovet maktablarda o'ziga yarasha kamchiliklar va muammolar mavjud bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Музаффаров. Мактаб тўғрисида қонунни амалга оширишдаги биринчи қадамлар. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 10 октябр. 1960. 13-б.
2. А.Аҳмедов. Ўқувчиларда коллективизмни шакллантириш. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 5 май. 1969. 14-15-16-б.
3. Ж.Полвонов. Ижтимоий бурч ҳиссини шакллантириш. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 1 январ. 1969. 22-23-б.
4. И.Хусейнов. Тажриба ишларини уюштириш. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 3 март. 1969. 77-79-б.
5. М.Мирқосимов. "Ўзбекистон ССР"ни ўрганиш. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 3 март. 1969. 37-б.
6. Н.Очилов. Жамоатчиликнинг ёрдами. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 1 январ. 1969. 80-б.
7. С.Матёкубов. Дарсда ўқувчилар билан индивидуал ишлаш. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 2 феврал. 1969. 69-б.
8. Т.Ширинов. Коллективнинг ташаббуси. Совет мактаби. 4 апрел. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 1969. 68-б.
9. Янги ўқув йилига пухта тайёрланайлик. Совет мактаби. Тошкент. Ўрта ва Олий мактаб нашриёти. 5 май. 1969. 3-4-5-6-б.